

Soliq qo'mitasi Raisining 2024-yildagi ish rejasi asosiy yo'nalishlari

Birinchidan - davlat budjetiga **197,6 trln so'm**, shuningdek **40 trln so'm** qo'shimcha daromad va Pensiya jamg'armasiga **46,8 trln so'm** tushumlarni ta'minlash choralari ko'riladi.

Ikkinchidan - soliq tizimini **mahalla darajasiga tushirish yangi instituti** faoliyati yanada kengaytiriladi va **"Mahalla soliqchisi"** axborot tizimi to'liq ishga tushiriladi;

Uchinchidan - yashirin **540,3 ming**ta ish o'rinlarini legallashtirish bo'yicha manzilli ish tashkil etiladi, jumladan, taksi faoliyati bilan shug'ullanayotgan 300 mingta fuqarolarni o'zini-o'zi ish bilan band qilish tizimi orqali **"soya"**dan chiqarish ustida ish olib boriladi;

To'rtinchidan - **sohani raqamlashtirish** izchil davom ettiriladi, jumladan: kichik biznes subyektlariga qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, mol-mulk va yer soliqlarini **soliq organlari tomonidan hisoblash**ga o'tiladi;

tovar-transport yuk xatlarini elektron rasmiylashtirish tartibi joriy etiladi; tadbirkorlar tomonidan "Soliq" mobil ilovasida **soliq xodimlari faoliyatini baholash tizimi** ishga tushiriladi.

Beshinchidan - tadbirkorlik faoliyati kafolatlarini yanada kuchaytirish va halol raqobat uchun teng shart-sharoit yaratish maqsadida:

konseptual jihatdan tubdan yangi mexanizm - **tadbirkorlarning barqarorlik reytingi ochiq-oydin e'lon qilinadi**;

jarimalar qo'llash instituti qayta ko'rib chiqiladi;

Oltinchidan - soliq organlari faoliyatini samarali tashkil qilish, jumladan tadbirkorlik subyektlarining ko'makchisiga aylantirishga qaratilgan dunyoqarashini o'zgartirish, vatanparvar va yosh malakali kadrlarni shakllantirish, ma'murchilikning yangi mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar qabul qilinadi.